

## DAVLAT BYUDJETI VA UNING SOLIQLI DAROMADLARI: MAZMUNI, IQTISODIY, MOLIYAVIY HAMDA HUQUQIY ASOSLARI

*Shirinov Sabir Erkinovich*

*I.f.n., professor, Soliqlar va soliqlar tortish kafedrası, Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston. Pochta: shirinov\_6613@mail.ru ORCID: 0009-0000-4441-8087*

## STATE BUDGET AND ITS TAX REVENUES: CONTENT, ECONOMIC, FINANCIAL AND LEGAL FRAMEWORK

*Shirinov Sabir Erkinovich*

*Candidate of Economics, professor, Department of Taxes and Taxation, Tashkent Financial Institute, Tashkent, Uzbekistan. Mail: shirinov\_6613@mail.ru ORCID: 0009-0000-4441-8087*

### **JEL Classification: H2, H25**

**Annotatsiya:** Maqolada "byudjet" tushunchasi mohiyatiga bo'lgan yondoshuvlar, bu boradagi xorij va respublikamizda taniqli bo'lgan iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikr va nazariy qarashlar yoritilgan. Xorij va respublikamizda taniqli bo'lgan iqtisodchi olimlarning bergan nazariy qarashlarini tahlil qilgan holda, "byudjet" tushunchasiga mualliflik ta'rif bergan.

Muallifning fikricha byudjet "qayta taqsimlash", "nazorat" va "ma'lumot taqdim qilish" funksiyalaridan tashqari, "yalpi talabni tartibga solish" funksiyasini ham bajaradi.

Maqolada "byudjet tuzilmasi" tushunchasi ham tahlil qilingan, unitar va federativ davlatlarning byudjet tizimi tarkibining chizma shaklida tasvirlangan. Muallifning fikricha, davlat tuzilishiga qarab, unga mos bo'lgan byudjet tuzilmasidan foydalanadi.

Muallifning takidlashicha, bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasi qancha yuqori va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqaror xususiyatga ega bo'lsa, YaIMning kam miqdordagi ulushi byudjet tizimi orqali taqsimlanadi.

Muallif "byudjet daromadi" tushunchasining mohiyatini byudjet, soliq va bojxona qonunchiligiga muvofiq, milliy daromadning bir qismi iqtisodiy subektlardan hamda fuqarolarda davlat hokimiyati ixtiyoriga, qaytarmaslik shartida olinishi bilan izzohlashga harakat qiladi.

Muallifning fikricha, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki jarayon mavjud. Birinchisi, davlat ixtiyoriga moliyaviy resurslarni jamlash bo'lsa, ikkinchi jarayon jamlangan mablag'larni davlat ehtiyoji uchun ishlatiladi. Bunda, birinchi jarayon "davlat daromadi", deb talqin qilinsa, ikkinchi jarayon – "davlat xarajalari", deb ataladi. Byudjetga yig'iluvchi pul mablag'lari sifatida, byudjet daromadlari byudjet uchun moddiy ahamiyatga ega va ular byudjetning moliyaviy asosini tashkil qiladi. Huquqiy jihatidan mulkiy munosabatlar tahlil qilganda, YaIM taqsimlangandan keyin byudjet daromadlariga egalik qilish huquqi iqtisodiy subektlardan hamda fuqarolardan davlatga o'tadi.

Byudjetga undirilishiga qarab, byudjet daromadlarini ikkita katta guruhlariga ajratishimiz mumkin: byudjetning solikli va soliqsiz daromadlari.

*Davlat byudjeti va uning soliqli daromadlarini huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi tashkil qiladi.*

**Abstract.** *The article presents the approaches and theoretical views of well-known foreign and domestic scientists to the essence of the concept of "budget". The author's definition of the concept of "budget" is given on the basis of an analysis of the approaches and theoretical views of well-known foreign and domestic scientists to the essence of the concept of "budget".*

*According to the author, in addition to redistribution, control, providing information, the budget performs the function of regulating aggregate demand.*

*The article analyzes the concept of "budget structure", "budget system", presents a drawing of the state budget system in federal and unitary states.*

*According to the author, as the level of development of the market economy and the stability of social and economic development, a smaller share of GDP is distributed through the budget.*

*The author tries to explain the essence of the concept of budget revenues as part of the national income withdrawn from economic entities and citizens in favor of the state on the basis of irrevocable.*

*The author believes that there are two interrelated processes. The first process is associated with the accumulation of financial resources at the disposal of the state, the second process is associated with the expenditure of financial resources for the needs of the state. The first process is called government revenue and the second process is called government spending. The accumulated funds are of material importance and form the financial basis of*

*the budget. After the distribution of GDP, the right to own budget revenues passes from economic entities to the state.*

*According to the method of collection. State revenues are divided into tax and non-tax revenues.*

*The Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Budget Code of the Republic of Uzbekistan, the Tax Code of the Republic of Uzbekistan constitute the legal basis for the tax revenues of the state budget.*

**Kalit so'zlar:** *Byudjet, byudjet tizimi, byudjet daromadlari, soliqli daromadlar.*

**Key words:** *budget, budget system, budget revenues, tax revenues.*

**Kirish.** *Davlat byudjeti va uning soliqli daromadlarining mazmuni, iqtisodiy, moliyaviy hamda huquqiy asoslari to'g'risida ko'plab xorij va respublikamizda taniqli iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar amalga oshirganlar. Ular o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida "byudjet", "byudjet tizimi", "davlat byudjetining daromadlari", "davlat byudjetining soliqli daromadlari" kabi tushunchalarga o'zlarining qarashlarini bildirgan. Ayrim tushunchalarning nazariy talqini borasida yagona fikrilar mavjud emas. Shu sababli, bugungi kunga qadar bu borada iqtisodchi olimlar o'rtasida bahs-munozara davom etmoqda.*

*Soliqli daromadlarini o'rganish, xususan soliqli daromadlarni prognoz qilish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish uchun davlat byudjetining iqtisodiy mohiyatini ochish, moliyaviy hamda huquqiy asoslarini tadqiq qilishni talab qiladi.*

**Material va metod.** *Maqolada klassik iqtisodchi olimlarning davlat moliyasiga oid qarashlarini, xorij va respublikamizda taniqli bo'lgan iqtisodchi olimlarning "byudjet", "byudjet tizimi", "byudjet daromadlari", "soliqli daromadlar" tushunchalariga bergan ta'riflarini tadqiq qilishda mantiq, qiyoslash,*

abstraksiya, induksiya va deduksiya, mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Natija.** Iqtisodiy adabiyotlar paydo bo'lgandan boshlab, davlat moliyasiga oid bo'lgan, davlatning chegaralangan mablag'larini shakllanirish hamda ularni ratsional va teng taqsimlash muammolari taniqli iqtisodchi olimlarning e'tiborini jadb qila boshlagan. Bu borada, XVIII asrda yashab, o'z tadqiqotlarini amalga oshirgan taniqli iqtisodchi –olimlar - Uilyam Petti, F. Kene, Adam Smitlar, davlat moliyasi nazariyasini shakllanishiga katta hissa qo'shdilar. Ularning ilmiy risolalarida bayon qilingan nazariy qarashlar davlat moliyasining zamonaviy nazariyasining fundamentini tashkil qiladi, deb aytsak, adashmaymiz. Samarali ishlovchi davlat moliyasi tizimini shakllantirmasdan turib, zamonaviy milliy iqtisodiyotni dinamik rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi.

Bugungi kunga qadar "byudjet" tushunchasining mohiyati ko'plab xorij va respublikamizda taniqli bo'lgan iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ammo, ularning nazariy qarashlarida "byudjet" tushunchasiga nisbatan yagona yondoshuvlar mavjud emas.

A.V.Vahobov, T.S. Malikovlar "Davlat bor ekan, davlat byudjetiga to'lovlar ham mavjud bo'ladi. Lekin byudjetga to'lovlarning shakli ma'lum bir bosqichda jamiyatning oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq ravishda o'zgarib boradi" [5], deb taakidlashgan.

Ye.A. Sidorovaning "Yevropa Ittifoqining byudjet siyosatini o'ziga xosligi" (2012 yil) nomli ilmiy risolasida "byudjet" tushunchasi quyidagicha talqin qilingan: "byudjet, iqtisodiy kategoriya sifatida, davlat hokimiyatining funksiyalarini va vakolatlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan pul jamg'armalarini

shakllantirish, taqsimlash, keyinchalik undan foydalanish bilan bog'liq jami iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Moddiylik nuqtai nazaridan, byudjetni davlat xarajatlarini qoplash uchun shakllantiriluvchi moliyaviy resurslar jamg'armasi, deb ta'riflash mumkin"[11]. Y. S. Dolganova, N.Y. Isakova, N.A.Istominalarning fikricha, "Byudjet mamlakat moliyaviy tizimida markaziy o'rin egallaydi va u davlatning ajralmas qismi hisoblanadi. Byudjet nafaqat davlat hokimiyati idoralarining funksiyasini bajarilishini ta'minlovchi moliyaviy asos, balkim mamlakat mustaqilligini zamini hamdir"[9]. K.S Belskiy va boshqalar "davlat byudjetini –davlatning moliyaviy tizimini markaziy bug'ini .... davlatning moliyaviy siyosatining amalga oshirishning muhim dastagidir"[4], deb tushuntirishga harakat qilishadilar. A.M. Godin va boshqalarning takidlashicha, "byudjet – davlatning hamda mahalliy hokimiyatlarining funktsiya va vazifalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'larini shakllantirish va sarflash shakli"[7]. L.I. Yakobsonning fikricha, "Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamda yuqori qarzdorlik holatida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi muqarrardir. Shu sababli, o'zining funktsiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan resurslar davlat tomonidan YaiM hisobidan yig'iladi. Moliyaviy resurslar resurslarning asosiy turi bo'lganligi sababli, davlat moliyasi, jumladan byudjet va uning daromad va xarajat qismlari milliy iqtisodiyotning ijtimoiy sohasini muhim tarkibiy qismi hisoblanadi"[15].

Iqtisodiy adabiyotlarda, bir vaqning o'zida "byudjet" tushunchasiga: "davlatning asosiy moliyaviy rejasi", "asosiy markazlashgan pul jamg'armasi", "jami pul munosabatlari", "muhim moliyaviy tartibga soluvchi dastak" va boshqalardan foydalangan holda ta'rif berilganligini

kuzatamiz. 1.1-chizmaga qarang. Iqtisodchi olimlar tomonidan "byudjet" tushunchasiga berilgan talqinlarni tahlil qilish natijasida nazariy yondoshuvlarni yetti guruhga ajratdik: iqtisodiy kateoriya sifatida; moliyaviy hujjat sifatida; maxsus jamg'arma sifatida; davlatning moliyaviy siyosatining

amalga oshirishning muhim dastagi sifatida; moliyaviy tizimini markaziy bug'ini sifatida; milliy iqtisodiyotning ijtimoiy sohasini muhim tarkibiy qismi sifatida; davlat hokimiyati idoralarining funksiyasini bajarilishini ta'minlovchi moliyaviy asos, mamlakat mustaqilligini zamini sifatida.



### 1.1-chizma. "Byudjet" tushunchasi mohiyatiga bo'lgan yondoshuv turlari<sup>1</sup>

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan talqinlarni tahlil qilish natijasida "byudjet" tushunchasiga o'zimizning mualliflik ta'rifimizni shakllantirdik: "Byudjet – bu, davlatning zimmasidagi funksiyalarni bajarilishini moliyaviy jihatidan ta'minlovchi, mamlakatda yaratilgan YaIMni qayta taqsimlash natijasida shakllantiriluvchi, moliyaviy resurslari belgilangan rejaga mos ravishda, maqsadga muvofiq sarflanuvchi davlatning markazlashgan pul jamg'armasi –davlatning asosiy moliyaviy rejasidir. Nazariy jihatdan

yondoshganda, byudjet – bu, davlat va fuqarolar o'rtasida, mamlakatda yaratilgan YaIMni qayta taqsimlash jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmuasidir"<sup>2</sup>.

Byudjet funksiyalarini belgilashda ham iqtisodchi olimlar orasida turli mazmundagi munozaralar mavjud. Aksariyat iqtisodchi olimlar byudjet asosan uchta – qayta taqsimlash, nazorat va ma'lumot taqdim qilish funksiyalarini bajaradi, deb tushuntirishga harakat qilishadilar. Nazarimizda, davlat byudjeti -davlat


<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>2</sup> Muallif tomonidan "byudjet" tushunchasiga berilgan ta'rif.

tomonidan sotib olinuvchi tovarlar, ish va xizmatlarga bo'lgan yalpi talabni belgilab beradi. Shu sababli, byudjet tomonidan bajariluvchi funksiyalar tarkibiga "yalpi talabni tartibga solish"<sup>3</sup> funksiyasini kiritish maqsadga muvofiq.

Har-bir mamlakat o'zining davlat tuzilishiga qarab, unga mos bo'lgan byudjet tuzilmasidan foydalanadi. (1.2-chizmaga qarang). O'zbekiston - unitary davlat. Uning

byudjet tizimi respublika va mahalliy byudjetlardan tashkil topgan. Iqtisodiy adabiyotlarda "Byudjet tuzilmasi" tushunchasi turli xil talqin qilingan. "Byudjet tuzilmasi –bu, byudjet tizimining tashkiliy-huquqiy qurilmasi bo'lib, u o'z tarkibiga byudjetlarni, tamoyillarni hamda ular o'rtasidagi o'zaro a'loqa shakllarini kiritadi"[13].



### 1.2-chizma. Unitar va federativ davlatlarning byudjet tizimi tarkibi<sup>4</sup>

M. Dovjilevchzning fikricha, "Yevropa Ittifoqining umumiy byudjeti, a'zo mamlakatlarning o'ziga xos, birgalikdagi loyihasi hisoblanadi. A'zo mamlakatlar umumiy vaziflarni hal qilish maqsadida, umumiy byudjetga o'zlarining resurslarini birlashtiradi"[12]. "Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash, hududiy siyosat hamda ma'muriy appartani saqlash kabi masalar umumiy byudjet hisobidan hal qilinadi"[8]. Umumiy byudjet siyosatiga aloqador masalalar bir tomondan, haddan tashqari siyosiy lashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan – yevropa integratsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Byudjetning mamlakat hayotidagi ahamiyatiga baho berishda xalqaro statistika

YaIMning byudjet orqali qayta taqsimlanuvchi ulushidan foydalanadi. Odatda, bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasi qancha yuqori va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqaror xususiyatga ega bo'lsa, YaiMning kam miqdordagi ulushi byudjet tizimi orqali taqsimlanadi.

Byudjet daromadlari tarmoqlar hamda institusional mansublikka ega bo'lishi mumkin. Ularni tahliliga keng ma'noda ham tor ma'noda ham yondoshishimiz mumkin.

"Byudjet daromadi" tushunchasi pul mablag'larini byudjetga jalb qilish jarayonida yuzaga keluvchi barcha munosabatlar majmuasi sifatida talqin qilishimiz mumkin. Masalan, byudjet, soliq va bojxona qonunchiligiga muvofiq, "milliy

<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan taklif.

<sup>4</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

daromadning bir qismi iqtisodiy subektlardan hamda fuqarolarda davlat hokimiyati ixtiyoriga, qaytarmaslik shartida olinadi"[10]. Aytish joizki, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki jarayon mavjud. Birinchisi, davlat ixtiyoriga moliyaviy resurslarni jamlash bo'lsa, ikkinchi jarayon jamlangan mablag'larni davlat ehtiyoji uchun ishlatiladi. Bunda, birinchi jarayon "davlat daromadi", deb talqin qilinsa, ikkinchi jarayon –"davlat xarajalari", deb ataladi.

Byudjetga yig'iluvchi pul mablag'lari sifatida, byudjet daromadlari byudjet uchun moddiy ahamiyatga ega va ular byudjetning moliyaviy asosini tashkil qiladi. Huquqiy jihatidan mulkiy munosabatlar tahlil qilganda, YaiM taqsimlangandan keyin byudjet daromadlariga egalik qilish huquqi iqtisodiy subektlardan hamda fuqarolardan davlatga o'tadi.

Byudjetga undirilishiga qarab, byudjet daromadlarini ikkita katta guruhlariga ajratishimiz mumkin: byudjetning soliqli va soliqsiz daromadlari. Byudjet daromadlarining bunday guruhlanishi iqtisodchi olimlar o'rtasida doimo bahs-munozaraga sabab bo'lgan. Shu sababli, "bugungi kunda byudjet daromadlarini soliqli yoki soliqsiz turiga mansubligini aniqlash bo'yicha aniq, yagona konsepsiya mavjud emas" [3].

Tarkiban, byudjet daromadlari yetarlicha ko'p va xilma-xildir. N.A.Shevelyovaning fikricha, "byudjet daromadlarining bunday xilma-xilligi, ularni byudjet tarkibida klassifikatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi"[14]. Byudjet daromadlarini turli xil belgilar bo'yicha guruhlariga ajratishimiz mumkin. Shundan, byudjet daromadlarini klassifikatsiyalash o'zida bunday daromadlarni shakllanish o'ziga xos xususiyatlarini hamda daromadlarni byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida taqsimlash mexanizmini aks etishi

lozim. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 21-moddasida byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnif qilish qoidalari belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq, Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi daromadlarni ularning turlari va manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi[2].

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi tuzilmasi quyidagi guruhlar bo'yicha tasniflanadi: byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi; daromadlarning turlari; tashkiliy tasnif; hududiy tasnif.

Kelib tushayotgan daromadlarning qaysi manbalariga va byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash maqsadida, byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi qo'llaniladi.

Daromadlarning turi, tarkiban bo'lim, paragraf va daromad tipidan tashkil topadi. Bunda, daromadlar bo'limi daromadlarni ularni olish manbalari bo'yicha kodlasa, daromadlar paragrafi esa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek soliqli bo'lmagan to'lovlarni ularni undirish bazasi bo'yicha kodlaydi. Daromad tipi byudjet tizimi byudjetlari daromadlari ularning aniq turlari bo'yicha guruhlanadi.

Kelib tushayotgan daromadlarning ma'muriy jihatdan idora qiluvchi qaysi idoraga mansubligini identifikatsiyalash maqsadida tashkiliy tasnif amalga oshiriladi. Tashkiliy tasnifdan farqli ularoq, hududiy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning qaysi ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida foydalaniladi.

V.P.Vasilevning taakidlashicha, "byudjet daromadlarini hisoblashda bir qator byudjet daromadlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlarni prognozlash lozim. Ularga quyidagilar kiradi: YaiMning miqdori; inflyatsiya

darajasi; jahon bozoridagi baho; valyuta kursi"[6]. Nazarimizda, byudjet daromadlarini hisoblashda yuqorida keltirilgan omillardan tashqari boshqa omillar ham inobatga olish maqsadga muvofiq. Masalan, investitsiya miqdori, soliq siyosati va boshqalar.

Davlat byudjeti va uning solikli daromadlarini huquqiy asoslari haqida so'z yuritganizmida, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini nazarda tutishimiz lozim. O'zbekiston Respublikasida yagona soliq tizimi amal qiladi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 123-moddasi). Mamlakat hududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga berilgan[1]. Shunday qilib, mamlakat hududida soliqlarni joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli hisoblanadi.

Mahalliy hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasiga asosan, mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish vakolatlariga ega[1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari, belgilangan soliqlar va yig'implar nafaqat qonuniy ravishda to'lash bo'yicha umumiy majburiyatni mustahkamlaydi, balki soliq to'lovchilar huquqlari va fiskal manfaatlarga rioya qilish o'rtasida murosani ta'minlashning huquqiy kafolatlar tizimini ham nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining huquqiy asoslarini yaratishda

O'zbekiston Respublikasining boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlari ham ishtirok etadi.

Yuqorida keltirilgan meyoriy-huquqiy xujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi normalari, soliq risklarini boshqarish mexanizmini tartibga solishda birlamchi mavqeyga ega hisoblanadi.

Soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilish, hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir munosabatlar, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi normalari asosida tartibga solinadi.

Davlat byudjetini tuzish, tasdiqlash va ijrosini ta'minlash masalalari O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi bilan tartibga solinadi.

**Мунозара.** O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 51- moddasida solikli daromadlar tarkibiga davlat boji kiritilgan. Ammo, bojxona boji ham boshqa soliqlar va yig'implar kabi undirilsada, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17 moddasida, soliqlar va yig'implar tarkibida keltirilmagan. Nazarimizda ushbu masala ham munozaraga muhtoj.

**Xulosa.** Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat byudjeti muhim rol o'ynaydi. Davlat byudjetida davlatga tegishli barcha daromadlari yig'iladi va yig'ilgan daromadlar hisobidan davlat xarajatlari moliyalashtiriladi.

"Byujet", "byudjet tizimlmasi", "byudjet funksiyasi", "davlat byudjetining solikli va soliqsiz turlariga bo'linishi" kabi tushunchalarning mohiyati yuzasidan taniqli iqtisodich olimlar o'rtasida yagona fikr va nazariy yondoshuv mavjud emas.

Soliq tushumlari davlat byudjetining solikli daromadlarini tashkil qiladi. Davlat byudjetining daromadlari tarkibida, solikli daromadlari prognoz qilinadi.



O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasi, Byudjet kodeksi, Soliq  
kodekslari va boshqa normativ-me'yoriy

hujjatlar davlat byudjeti va uning soliqli  
daromadlarini huquqiy asosini tashkil qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
3. Артемов Н. М., Ячменев Г.Г. Правовое регулирование неналоговых доходов бюджетов: учеб. пособие /– М. : Элит, 2008. – 376 с. (С. 7).
4. Бельский К.С., Горбунова О.Н., Грачёва Е.Ю. и др.; Финансовое право: учебник / отв. ред. Запольский С.В.; Рос. Акад. правосудия. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Волтерс Клувер, 2011. 760с. (с. 140-141.)
5. Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия. Дарслик /Тошкент Молия институти. - Тошкент: "Ношир", 2012. 712-бет(2896).
6. Васильев В.П. Государственное регулирование экономики : учеб. пособие /. - Москва : Дело и Сервис, 2018.-164 с. (С. 67). ISBN 798-5-534-05544-3.
7. Годин А.М., [и др.]Бюджетная система Российской Федерации: учеб. /.— 4-е изд., испр. и доп.— Москва : Дашков и К, 2007.— 568 с.(с.10).
8. Гутник В.П. и др. Финансовая политика стран ЕС /– М.: Наука, 2004. – 267 с. (с. 211)
9. Долганова Ю. С., Исакова Н.Ю., Истомина Н.А. [и др.]; Финансы : учебник / под общ. ред. канд. экон. наук, доц. Н.Ю. Исаковой ; Мин-во обр. и науки РФ. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. — 336 с. (с. 80). ISBN 978-5-7996-2748-5
10. Селюков А. Д. Финансовое обеспечение местного самоуправления: проблемы правового регулирования /. – М. : Нац. ин-т бизнеса, 2003. (С. 169).
11. Сидорова Е.А. Особенности бюджетной политики в Европейском союзе – М.: ИМЭМО РАН, 2012 – 129 с. (с.9). ISBN 978-5-9535-0343-3.
12. Dowgielewicz M. Slashing the EU's budget won't fix the crisis // Europe's world. 2011. Spring. P. 46.
13. Финансы : учеб. / под ред. проф. М. В. Романовского, проф. О. В. Врублевской, проф. Б. М. Сабанти. 2-е изд., перераб. и доп. М. : Юрайт : Высшее образование, 2010. С. 111.
14. Шевелёва Н. А. Бюджетная система России: опыт и перспективы правового регулирования в период социально-экономических реформ / Н. А. Шевелёва. – СПб. : Издат. дом С.-Петербур. гос. ун-та ; Изд-во юрид. фак. С.-Петербур. гос. ун-та, 2004. – 280 с (С.77).
15. Якобсон Л.И. Государственный сектор экономики. Экономическая теория и политика. – М.: ГУ ВШЭ, 2000. – 365 с.(С. 24)